



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA KLINIK LINGVISTIKANING O'RNI

**Xudayberdiyeva Laziza Sanjarovna**  
Andijon davlat tibbiyot instituti, dotsent

### Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan biri bo'lgan klinik lingvistikaning nazariy va amaliy ahamiyati yoritiladi. Unda nutq va til buzilishlarini o'rganishda lingvistik yondashuvning o'rni, shuningdek, klinik lingvistikaning tibbiyot, psixologiya va logopediya bilan o'zaro integratsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada klinik lingvistikaning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari va uning amaliyotdagi qo'llanilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** klinik lingvistika, nutq buzilishlari, lingvistik tahlil, nutq patologiyasi, tashxislash, rehabilitatsiya, logopediya, psixolingvistika, til va nutq terapiyasi.

## РОЛЬ КЛИНИЧЕСКОЙ ЛИНГВИСТИКИ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

**Худайбердиева Лазиза Санжаровна**  
Андижанский государственный медицинский институт, доцент

### Аннотация

В данном исследовании освещаются теоретические и практические аспекты клинической лингвистики как одного из направлений современного языкознания. Рассматривается роль лингвистического подхода в изучении нарушений речи и языка, а также анализируется интеграция клинической лингвистики с медициной, психологией и логопедией. Также в статье рассматриваются современные тенденции развития клинической лингвистики и возможности её применения на практике.

**Ключевые слова:** клиническая лингвистика, речевые нарушения, лингвистический анализ, речевая патология, диагностика, реабилитация, логопедия, психолингвистика, терапия речи и языка.

## THE ROLE OF CLINICAL LINGUISTICS IN MODERN LINGUISTICS

**Khudayberdiyeva Laziza Sanjarovna**  
Andijan State Medical Institute, Associate Professor

### Abstract

This study highlights the theoretical and practical aspects of clinical linguistics as one of the branches of modern linguistics. It examines the role of the linguistic approach in the study of speech and language disorders, as well as analyzes the integration of clinical linguistics with medicine, psychology, and speech therapy. The article also considers current development trends in clinical linguistics and the possibilities of its practical application.

**Keywords:** clinical linguistics, speech disorders, linguistic analysis, speech pathology, diagnosis, rehabilitation, speech therapy, psycholinguistics, language and speech therapy.

XX asr insoniyat taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida tub o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bu jarayon, birinchi galda, milliy tillarda o'z zuhrini berdi. O'tgan asrning oxiriga kelib zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda ustuvor bo'lgan struktur metodlar til va nutqning yangi qirralarini ochib berishda ojizlik qila boshladi. Tilni faqat tizim sifatida tadqiq etish, uni eng muhim aloqa vositasi sifatida amalda qo'llash, til sohibi bilan

birga o'rganish masalalarida yangicha qarashlarga ehtiyoj sezildi.

Shunday masalalardan birini nutqiy nuqsonlar va ularni bartaraf etish bilan bog'liq muammo tashkil etadi.

Ta'kidlash joizki, Alloh hammani teng qilib yaratmagan. Jamiyatda yuksak nutq madaniyatiga ega, mohir notiqlar bilan birgalikda nutqi buzilgan, tovushlar, bo'g'inlar va so'zlarni tez-tez takrorlaydigan, so'zlarni uzib-uzib talaffuz qiladigan, nutq jarayonida beixtiyor to'xtab qoladigan shaxslar ham uchraydi. Ular o'zbek tilida duduq, soqov atamaları bilan ataladi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 1,0 foizi duduqlanishdan aziyat chekadi. Jahon tarixida iz qoldirgan mashhur shaxslar — Demosfen, Georg VI, Isaak Nyuton, Uinston Charchil, Merilin Monro, Jerar Depardye va boshqalarning mazkur kasallikdan aziyat chekkaniga doir ma'lumotlar mavjud.

1995-yilda Duduq insonlar xalqaro assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, 1998-yildan boshlab har yili 22-oktyabr kuni "Xalqaro duduq insonlar kuni" sifatida nishonlanib kelinadi.

Ilm-fan, texnika rivoji, global o'zgarishlar, hayotga yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning kirib kelishi, sun'iy intellektning yaratilishi tilshunoslikda kognitiv lingvistika, gender lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, ekolingvistika, biolingvistika kabi istiqbolli yo'nalishlarning paydo bo'lishi va shiddat bilan rivojlanishiga yo'l ochdi. Shulardan birini klinik lingvistika tashkil qiladi. Avvalo, atama to'g'risida. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mazkur atamaning birinchi komponenti — klinik so'ziga shunday izoh berilgan:

**KLINIK** — 1) klinikaga oid, klinika bilan bog'liq; 2) vrach yordami (aralashuvi) talab etiladigan, shu yo'l bilan hal etilishi mumkin bo'lgan [1.383].

"Klinika" esa yunoncha *klinike* so'zidan olingan bo'lib, "yotgan kasalni parvarishlash", "davolash" ma'nolarini anglatadi. Keng ma'noda bemorni yotqizib (statsionar) davolash bilan birga, tibbiy ta'lim va ilmiy-tekshirish ishlari olib boriladigan maxsus shifoxona, kasallarni parvarish qilish ma'nosini bildiradi.

**LINGVISTIKA** fransuzcha *linguistique*, lotincha *lingua* — "til" so'zlaridan olingan bo'lib, til haqidagi fan, til bilimi, tilshunoslik degan ma'noda qo'llanadi. Ko'rinadiki, klinik lingvistika oraliq fan sanalib, tibbiyotning tilshunoslik bilan kesishgan chorrahasida paydo bo'lgan sinxron soha sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq ta'kidlash lozimki, uning yuzaga kelishida fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning ham o'rni bor [1.499].

Dunyo tilshunosligida klinik lingvistika nisbatan yosh fan sanaladi va unga shunday ta'rif beriladi: "Klinik tilshunoslik — bu tilshunoslik nazariyasini nutq terapiyasiga qo'llashni o'z ichiga olgan tilshunoslikning kichik tarmog'idir. Amaliy tilshunoslikning bir sohasi bo'lgan klinik lingvistika til buzilishlarini tavsiflash, tahlil qilish va davolashga qaratilgani bilan xarakterlanadi".

Anglashiladiki, klinik lingvistika muayyan shaxslarda uchraydigan nutqiy yetishmovchiliklar va ularning profilaktikasi bilan shug'ullanadi. Aytilish lozimki, har bir milliy til o'zining sistem-struktur va funksional-uslubiy qurilishiga ko'ra betakror va mukammal bo'ladi. Azaldan til va nutqning bir-biriga bog'liq, ajralmas tushunchalar ekani qayd etib kelinadi. Aslida, til nutq uchun moddiy material sanaladi. Nutq shu material asosida quriladi. Bu haqda ulug' alloma Alisher Navoiyning o'rinli gapı bor: "Odam tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq nomaqbul bo'lib chiqsa, tilning ofatidir".

Demak, hamma gap til unsurlaridan shu til sohiblarining qay darajada foydalanishiga bog'liq bo'ladi. Nutq aytilishi, eshıtılıshı va ijtimoiy qiymatga egaligi jihatidan to'liq bo'lgandagina foydali sanaladi. Nutq jarayoni shularga mos ravishda gorizontāl yo'nalıshda kechadi: aytiladi, eshıtıladi hamda ma'no anglatadi. Uning birinchi nuqtasi sanalgan aytilish — talaffuzida nuqson bo'lsa, bu aynan shu tarzda eshıtıladi va tilda oldından tayyor bo'lgan muayyan birlikning shakl va ma'no jihatidan buzilishiga olib keladi.

Iste'dodli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida shunday satrlar bor:

“Jamiki to‘y, jamiki ma‘raka Shayxsiz o‘tmaydi. Uning o‘z vazifasi bor: samovar qo‘yadi. Xotinoshida mahalla oti, nikoh-u bazmlarda to‘yboshi erkaklar Shayxning xizmatiga muhtoj.

— Shayx, to‘rt choynak choy! Uch choynak famil, bir choynak ko‘kidan bo‘lsin!  
— Hodzir...

Shayx g‘alati gapiradi, “z”ni aytolmaydi, “dz” deydi, “s” deyolmaydi, allaqanday “ts” qilib gapiradi.

— Shayx, tezroq, nozik mehmonlar kelib qoldi.

Shayx shoshilmaydi, ishini bilib qiladi.

— Tsekin. Nodzik bo‘lsa, o‘dziga, — deydi u iljayib.

Odamlar ranjimaydi. Shayxning puxtaligini bilishadi. Shuncha yildan beri bironta to‘yda choynak darz ketmagan, biron mehmon choysiz qolmagan” [2.30].

Ko‘rinadiki, Shayxning nutqi amaldagi me‘yorga to‘g‘ri kelmaydi. Talaffuzi, eshinishi va ijtimoiy qiymati jihatidan farq qiladi. Uning “z” va “s” tovushlarini “dz”, “ts” tarzida noto‘g‘ri aytishi undagi nutqiy nuqsonni namoyon qilmoqda.

Shuningdek, muayyan nutqiy vaziyatlarda so‘zlovchi ma‘lum sabablarga ko‘ra so‘zida tutilib qolishi, duduqlanishi mumkin. Bu uning ijtimoiy-ruhiy holati bilan bog‘liq holda kechadi. Bunga quyidagi misolni olishimiz mumkin:

“Nilufar itoatsiz barmoqlari bilan qizil charm sumkasini ochdi-da, negadir qo‘llari qaltirab, do‘ppaygan konvert oldi.

— Yuz so‘m, Hikmat aka...

— Bekor ovora bo‘psiz...

— Ovorasi yo‘q... Iltimos qilaman, oling, Hikmat aka! — Nilufar qo‘lini o‘zgartirganicha bir qadam oldinga yurdi, ovozi titrab, duduqlanib gapirdi. — Ko‘nglingizga hech narsa kelmasin. Boya... Siz ketgandan keyin o‘ylab qarasak... Juda xunuk ish bo‘pti... Mayli, qachon desangiz, shunda qaytararsiz...” [7.32].

Bunday vaziyatlarning tibbiy-lingvistik sabablari hali o‘zbek tilida yetarli darajada ochib berilgani yo‘q.

Alohida ta‘kidlash lozimki, Alloh taolo insonni mukammal qilib yaratgan, unga boshqa jonzotlardan farqli ravishda til-zabon ato etgan, ammo ajdodlarning xatosi yoki tabiiy shart-sharoit, baxtsiz hodisalar oqibatida insonning eng muhim organlaridan biri sanalgan miya hujayralariga va nutq apparatiga shikast yetishi mumkin. Buning oqibatida shaxs nuqsonli so‘zlay boshlaydi va bu har bir milliy tilda alohida atamalar bilan yuritiladi. Mazkur atamalar kasallik nomi sifatida qabul qilingan. O‘zbek tilida ular soqov, duduq, tutuq, chuchchi kabi leksik birliklar orqali ifodalanadi. Bu kasalliklar tug‘ma yoki muvaqqat bo‘ladi.

Nutqiy yetishmovchiliklarning eng yorqin ko‘rinishi bu — duduqlanish sanaladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday ta‘rif berilgan:

**DUDUQ** — ba‘zi tovushlarni qiynalib talaffuz etuvchi yoki tutilib gapiruvchi.

**DUDUQLANMOQ** — ba‘zi tovushlarni qiyinlik bilan talaffuz etmoq yoki tutilib-tutilib gapirmoq.

**DUDUQLIK** — tutilib gapirish, duduqlanish xususiyati [1.964].

Ushbu kasallikka uzoq vaqt faqat tibbiy nuqtayi nazardan qarab kelindi. Xususan, uning sabablari nutqning noto‘g‘ri rivojlanishi, kutilmagan ruhiy holatga tushish, biror narsadan qattiq qo‘rqish, irsiyat, kuchli hayajonga berilish va hokazolardan izlandi. Tibbiyotda logopediya yo‘nalishi shakllandi. Uning nazoratida nutq gimnastikasi mashqlarini bajarish, to‘g‘ri nafas olish, turli preparatlar yordamida davolash ishlari bajarildi. Zaruriy o‘rinlarda ruhshunos yordamiga tayanildi. Biroq ilm-fan rivoji, jamiyat taraqqiyoti, masalaga ilmiy yondashish shuni ko‘rsatdiki, duduqlanish, chala gapirish, nutqni noaniq talaffuz qilish kabi nutqiy qusurlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, tashxislash va davolash ishlarini tashkil qilishda faqat tibbiy vositalardan foydalanish har vaqt ham yordam beravermas ekan.

Muammoning tub sabablari tibbiy-biologik, psixologik, ijtimoiy va, o'z-o'zidan, lingvistik muammolarga borib taqalishini davrning o'zi ko'rsatib turibdi. Shu bois nutqiy yetishmovchilikni lingvistik aspektida o'rganish bu borada katta samara berishi aniq.

Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, nutqiy yetishmovchiliklarning bir qancha ko'rinishlari mavjud. Ularni quyidagicha ajratish mumkin:

### **1. Muvaqqat nutqiy yetishmovchiliklar.**

Bunga kichik yoshdagi bolalar nutqida uchrovchi kamchiliklarni misol qilib keltirish mumkin. Ko'p hollarda bolalar "r" tovushini "y" tarzida talaffuz qilishadi. Shuningdek, "b-p", "d-t", "z-s", "ch-sh", "f-p" undosh tovushlarini almashtirib aytishadi.

"Bir kuni Popuk varrak uchirayotganlarni ko'rib:

— Menga ham vayyak, — deb turib oldi.

Men bo'ya cho'pni choy qog'ozga nari-beri yopishtirdim-da, ip bog'lab bersam:

— Manaqamas, — deb uloqtirdi.

Popuk tentakka-ku bilinmadi. Buvim "ada" degin deb o'rgatgan edi, darrov "ada"laydigan bo'ldi. "Ada, uchadigan koptok olib beying" (shar olib bering demoqchi); "qornim ochib ketvotti"; "mayajni obering" [6.16].

Bu qusur ko'pchilik yosh bolalar nutqiga xos bo'lib, yillar o'tishi bilan yo'qolib ketadi yoki fonetik mashqlar orqali unga barham beriladi.

Bu haqda atoqli bolalar shoiri Tursunboy Adashboyevning bir qancha she'rlari bor. Masalan:

*Balki sizlar tanimassiz,*

*O'yingaroq Parpini.*

*Ilgari hech aytolmasdi,*

*So'rasang "R" harfini.*

*Hozir esa do'stlari hech,*

*Mazax qilmas Parpini.*

*Ko'p mashq qilib, o'rgandi u,*

*Oxiri "R" harfini.*

(T. Adashboyev, "R" harfi", 21–22-betlar)

### **2. Muntazam (doimiy) yoki tug'ma nutq yetishmovchiliklari.**

Klinik lingvistika duduqlanishni bir tomonlama emas, balki logopediya, psixologiya, sotsiologiya, anatomiya, tibbiyot fanlari kesishgan nuqtada o'rganish va davolashni taklif etadi. Eng avval u shaxsning bolalik yillarida namoyon bo'ladi.

Nutqiy kamchiliklar, xususan duduqlanish, bir nechta turlarga ajraladi. Nevrozik va nevrotik duduqlanishni farqlash kerak bo'ladi.

Nevrotik duduqlanishda shaxs muayyan vaziyatlarda doimiy ravishda nutqiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Vaqtida davolanmasa, muntazam ravishda shunday vaziyatda hayot kechirsa, duduqlanish insonga umrining oxirigacha odat bo'lib qolishi mumkin. Oiladagi, ko'chako'ydagi, maktabdagi ruhiy bosimlar, urish-janjallar, qattiq qo'rqish, hayajon, kutilmagan vaziyat duduqlanishga sababchi bo'lishi mumkin.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasidagi Shayx nutqi bunga yaqqol misoldir:

— U har 'oyi' deganda boshini yerga urar, yerni mushtlar edi. Birpasda peshonasi momataloq bo'lib ketdi.

— Oyi! Qayoqqa ketdidz, oyi?!" [2.31].

Nevrozik duduqlanishda kuchli hayajon, qo'rquv yoki kutilmagan xabar natijasida duduqlanish kelib chiqadi. Bunday duduqlanish shu holat o'tib ketgach barham topishi mumkin. Masalan, Farhod Musajonovning "Bo'sh kelma, Aliqulov" qissasidagi Rixsivoy bilan sinf rahbari Sharifjon aka o'rtasida bo'lib o'tgan muloqot bunga misol bo'la oladi. Gazetaga obuna bo'lmagani uchun Rixsivoyini qiyin-qistovga olgan Sharifjon aka uning qattiq javobidan keyin kutilmagan

vaziyatga tushib qoladi va gapida tutilish sodir bo‘ladi:

“— Nega olib kelmading?!”

Rixsivoy indamadi.

— Nahotki, ota-onang arzimagan uch so‘mni sendan ayasa?!”

Rixsivoyning birdan jahli chiqib, bo‘zarib ketdi. O‘qituvchiga o‘qrayib:

— Nima, yozilish majburiymi?! — dedi qo‘rslik bilan.

— Ha, endi... — tutilib qoldi Sharifjon aka. — Barcha sinflar yuz foiz yozilganda bizdan bitta odam chetda qolsa, sinfimiz sha‘niga dog‘ tushmadimi?!” [5.184].

Mutaxassislar duduqlanishning uch xil darajasini farqlaydilar:

**a) yengil daraja** — muloqot uchun to‘sqinlik qilmaydi, kommunikativ akt sodir bo‘ladi va har ikki tomon bir-birini tushunib yetadi. Masalan:

“Qudrat ikkilanib turganda Qo‘ziboy kirdi. U kelishga keldi-yu, so‘zni nimadan boshlashni bilmay, duduqlandi:

— Haligi... anaqa... Oyog‘ingga-chi yod qo‘ysang yaxshi bo‘lar ekan...” [6.173].

**b) o‘rta daraja** — muloqotda to‘siqlar paydo bo‘ladi, aloqa-aralashuvda anglashilmovchiliklar kelib chiqadi, adresant va adresat o‘rtasida bir-birini anglamay qolish kuzatiladi;

**c) og‘ir daraja** — muloqot jarayoni qiyin kechadi. Bunday sifatga ega shaxslar kam gapirishga harakat qilishadi. Odatda, bunday duduqlanish muayyan so‘zni aytishda yoki ma‘lum bir vaziyatda sodir bo‘ladi. Nutq apparatida tortilish yuzaga chiqadi. U klonik, tonik va aralash ko‘rinishlarda bo‘lishi kuzatiladi. Bu hol davom etaversa, duduqlanish ong ostiga mahkam o‘rnashib oladi va nutq “q..q..alaysiz”, “m...yen”, “o...najon” kabi to‘xtamlar, kichik pauzalar bilan namoyon bo‘la boshlaydi.

Ma‘lumki, muayyan tilda tanglayi ko‘tarilgan va shu tilda muloqot malakasiga ega bo‘lgan har bir shaxsda shu tildagi nutq tovushlarini talaffuz qilishga moslashgan nutq apparati bo‘ladi. Boshqacharoq qilib aytganda, har bir til sohibi o‘zining artikulyatsion bazasiga ega.

**Artikulyatsion baza** — biror tilga xos tovushlarni talaffuz etish ko‘nikmalari, artikulyatsiyalar tizimi sanaladi. **Artikulyatsiya** esa lotincha *articulatio*, yunoncha *articulare* — aniq-ravshan aytmoq so‘zidan olingan bo‘lib, nutq a‘zolarining tovush hosil qilishdagi harakat faoliyati va holatidir. Tovushlarning hosil bo‘lishida nutq a‘zolarining ishtiroki, holati nuqtayi nazaridan artikulyatsiyada artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuli farqlanadi [6.17].

Agar bunga asoslansak, har bir tovushning aytilish o‘rni va usulida milliy me‘yor borligini bilib olamiz. Me‘yordan ozgina bo‘lsa-da chetga chiqish nutqiy buzilishlarni keltirib chiqaradi. Bunga yo‘l qo‘yilganda insonda beixtiyor lab, til, pastki jag‘larda noto‘g‘ri harakatlanish yuzaga keladi. Bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, balki chuqur depressiya, qattiq hayajon, qo‘rquv, do‘q-po‘pisa va shu kabilar natijasida kishi ongida, ruhiyatida bo‘lgan o‘zgarishlarning aks-sadosi sifatida zuhur beradi. Ikkinchi tomondan, duduqlanish nafas olish bilan bog‘liq. Ovozda tortilish ba‘zan uning yo‘qolishiga olib keladi. Ko‘pincha bola yana gapirishga harakat qilib og‘zini ochadi, lekin ovoz to‘liq emas, balki bo‘linib chiqadi. Bu jarayonda diafragmaning o‘rni katta.

**Diafragma** yunoncha *diaphragma* — to‘siq so‘zidan olingan bo‘lib, sutemizuvchilarda va odamlarda ko‘krak qafasini qorin bo‘shlig‘idan ajratib turadigan muskul-paydan iborat parda, to‘siq sanaladi [1.605]. Demak, nutqning mukammal chiqishida mazkur parda alohida ahamiyat kasb etadi. Duduqlanishning davomiyligi qancha yuqori bo‘lsa, diafragmaning ishlashi ham shunga mos tarzda past bo‘ladi. Nutqiy ritm buziladi. Alohida ta‘kidlash joizki, duduqlanish organizmning zo‘rayishi bilan birga kechadi: bola yuzida qizarish, terlash, yurakning tez-tez urishi kabi holatlar yuzaga keladi.

Mutaxassislarning aytishicha, duduqlikda embolofraziya, logofobiya kabi jarayonlar kuzatiladi.

**Embololaliya** grekcha *embolos*, *embolon* — xanjar + *lalia* — nutq so‘zlaridan olingan

bo‘lib, ma‘lum bir nutq vaziyatida adresat tomonidan so‘z, so‘z bo‘lagi yoki iboraning doimiy ravishda takrorlanishi sanaladi. U embolofraziya deb ham yuritiladi. Bunday nuqsoni bor insonlar nutqida tartibsizlik kuzatiladi. Odatda, ular ruhiy tushkunlikda bo‘ladi. Shu bois, ularning davosi uchun nutq terapiyasi tekshiruvlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq sanaladi.

Nutqdagi bu kabi kamchilik sog‘lom insonlarda ham namoyon bo‘lishi mumkin. “Haligi”, “xo‘sh”, “demak”, “hm-m”, “shunday” kabi so‘zlar emboliya vazifasini bajarishga o‘tib qoladi. Bu o‘z-o‘zidan hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydigan nutq ko‘rinishi hisoblanadi va fanda embolus deb yuritiladi. O‘z nutqida ma‘lum bir so‘zni o‘rinsiz takrorlayverish insonlar uchun odat tusiga kirib qoladi.

Buni Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi Solih maxdum nutqi orqali juda chiroyli tasvirlanganini ko‘rish mumkin:

“Maxdum bo‘ychan, olago‘sh, siyrak mo‘y, oq tan, istarasi issiq bir domla edi. Yoshi ellikdan oshgan, soch va soqolida bir muncha oqlar ko‘rinar edi. Kishi bilan so‘zlashkanda, ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda, siyrak va lekin to‘g‘ri, baquvvat o‘sgan soqolini tutamlab, o‘ng ko‘zini bir oz qisib qarar, odat qilgandan bo‘lsa kerak, gap orasida “habba” degan so‘zni ko‘proq ishlata edi. Domlani bu “habba”si nima ma‘noda qo‘llanilar, o‘zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to‘g‘rida izoh ham so‘ramagan edilar. Har holda “habba” — “habhali” yoki “ha, barakalla” bo‘lsa kerak. Chunki u bir narsadan xursand va rozi bo‘lganda aksar “habba” deb yuborar edi” [7.149].

“— Baxayr, mulla Abdurahmon, baxayr... Vaalaykum assalom. Solih maxdum mulla Abdurahmon bilan ko‘rishdi va uni kishilardan ayirib mehmonxonaga olib kirdi.

— Xo‘sh, habba... Xo‘b, salomatmisiz?

— Alhamdulillah... O‘zlarining sihatlari?

Abdurahmon maxdumga rahmat aytdi va ketish uchun qo‘zg‘aldi.

— Qay vaqt xabar olsam bo‘lur ekan? Albatta, javob o‘zlaridan bo‘lsa kerak?

— Habba, ertaga ba‘daz bomdod, — dedi maxdum”.

Nutq ijro qilayotgan shaxs ko‘pincha bu kabi holatni sezmaydi, keraksiz nutq birliklarini beixtiyor o‘z nutqiga qo‘shib yuboradi va bu nutqni “to‘ldirish” uchun xizmat qiladi. Bu jarayon duduqlanishda yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Nutq egasi yuqoridagi kabi “keraksiz”, “ma‘no bildirmaydigan” tovush, so‘z, iboralarni o‘zidagi konvulsiya, ya‘ni asab tizimi buzilishining alomatlarini yashirish uchun o‘zi bilmagan holda qo‘llaydi. Ular, ya‘ni emboliyalar, qiyin talaffuz qilinadigan tovushlar oldidan nutqdagi bo‘linishlarning oldini olish yoki nutqni tekis chiqarish maqsadida ishlatiladi.

Insondagi so‘z boyligining yetishmasligi, grammatik noaniqliklar, fikrni aniq ifodalay olmaslik bunga sabab bo‘lishi mumkin. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidagi Sariboy nutqini misol qilib keltirish mumkin. Uning nutqiga “innaykeyin” degan so‘z o‘rnashib qolgan:

“Otlarga yem-xashak yo‘q. Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning yuragi dov bermaydi. Har gapdan keyin beriladigan ‘innaykeyin’ savolidan hamma qo‘rqadi” [8.148].

Muloqot uchun har bir tovush, so‘z aniq va tiniq aytilishi, suhbatdoshga to‘la yetkazilishi shart. Shu ma‘noda barcha xalqlarda qadimdan boshlab nutqiy buzilishlarni qayd etish, ularning sabablarini o‘rganish, davolash bilan bog‘liq muammolar kelib chiqqan va asrlar mobaynida unga shifo izlab kelingan. Nutqiy buzilishlar va ularning oldini olish masalasi bugun ko‘tarilayotgani yo‘q. Tarixda qadimgi greklar va rimliklarning mazkur masalaga alohida e‘tibor qaratgani haqida ma‘lumotlar uchraydi.

Bu haqda soha mutaxassisi T. Qudratov shunday deb yozadi: “Qadimgi Gresiya (Yunoniston)da va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi. Bunga quldorlik tuzumining rivojlanishi, quldorlik demokratiyasi sabab bo‘ldi. Bu davrda davlatning, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda

taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Yetuk inson bo'lish uchun, albatta, notiqlik san'atini egallash shart qilib qo'yiladi" [9.4].

Aristotelning "Ritorika", Sitseronning "Notiq haqida", "Notiq", "Brut", Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida" kabi hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan asarlari yozildi. Ularda chiroyli gapirish, notiqlik san'ati to'g'risida qimmatbaho tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqda ta'sirchan so'zlardan foydalanish, jummalarni o'rinli ishlatish masalasi o'rtaga tashlandi. Nutqning har qanday qusurlardan xoli bo'lishi ta'kidlandi. Albatta, qadimgi Yunoniston va Rim jamiyatida gapga chechan, nuqtadon insonlar bilan birga nutqida qusuri bo'lgan, duduq, soqov shaxslar ham yashagan bo'lishi aniq. Jamiyat ularni davolash yo'llarini qidirgan. Bunga tarixda yorqin misollar mavjud. Masalan, taniqli yunon notig'i Demosfenning (miloddan avvalgi 384–322) nutqida kamchilik bo'lgan, u tutilib so'zlagan va shunga monand ravishda kifti doim tirishib turgan. Buning oldini olish maqsadida u og'ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg'og'ida nutq so'zlardi va to'lqin shovqin-suronini bosib ketishga harakat qilardi. So'zlaganda uchib turadigan kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday joylaydiki, uning o'tkir tig'i kiftga yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergan".

Demosfenning o'z nutqini to'g'rilash uchun qilgan harakatlari klinik lingvistikaning ilk kurtaklari edi. Qadimgi dunyo olimlarining notiqlik san'ati haqidagi kitoblarida to'g'ri so'zlash, chiroyli gapirish bilan birga, tovushlarni aniq va tiniq qilib talaffuz etish to'g'risida ham qimmatli maslahatlar bo'lgan.

"So'z, — deb yozgan edi Aristotel, — insonning eng kuchli quroli. Insondagi hech bir narsa so'zchalik kuchli ta'sirga ega emas. So'z bo'lganda ham har qanday so'z emas, balki badiiy, adabiy til me'yorlariga amal qilgan so'zlar uni mahorat bilan go'zal tarzda yetkazib beruvchi notiq tilida dunyodagi eng dahshatli texnik quroldan ham katta kuchga ega bo'ladi" [10.22].

Sharq uyg'onish davrining buyuk namoyandalari — Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning badiiy-ilmiy merosida nutqni to'g'ri tuzish, chiroyli gapirishning nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan. To'g'ri, ularda klinik lingvistika haqida aniq gap-so'zlar uchramaydi, lekin tovushlar, so'zlarni to'g'ri aytish, ma'noga e'tibor berish to'g'risida diqqatga molik fikrlar mavjud.

Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida "ag'an" — "ag'an er" — dimog'i bilan so'zlovchi, manqa kishi leksemasi uchraydi [10.70]. Duduqlanib, tutilib gapiradigan odam "kefgak" deyilishi aytilgan.

"Ag'in" so'zi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida "soqov, lol" ma'nosida qo'llangan:

"O'kush so'zlasa, yangshadi ter tilig,  
Yana so'zlamasa, ag'in ter tilig"  
("Ko'p so'zlasa, tili ezmalandi,  
So'zlamasa-chi, til soqov deyiladi").

Aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, chiroyli gapirish bilan birga, insonlarda uchraydigan nutqiy kamchiliklarning tibbiy, ijtimoiy, lingvopsixologik sabablarini o'rganish, davolash tizimini yo'lga qo'yish talabi hamma davrlarda bo'lgan va buning yechimini topish klinik lingvistika zimmasiga yuklatilgan. Uning fan sifatida shakllanishiga uzoq vaqt kerak bo'ldi.

Nutq va til buzilishlarini tahlil qilishda tilshunoslik fani yutuqlaridan foydalanish masalasini birinchilardan bo'lib Rossiyada tug'ilib, xorijda faoliyat ko'rsatgan Roman Yakobson ko'tarib chiqdi. U ilk bor nutq patologiyasini o'rganishga lingvistik nazariyani qo'llashni taklif etdi. 1941-yilda nashr etilgan "Kindersprache, Aphasie, and Allgemeine Lautgesetze" kitobida orttirilgan afaziya bilan og'rigan bolalar va kattalarda tildan foydalanishni tahlil qilish natijalari

qayd etildi. Kitob 1968-yilda ingliz tiliga tarjima qilingandan soʻng mutaxassislarining eʼtiborini tortdi. Olimning qarashlari Amerika Qoʻshma Shtatlari va Buyuk Britaniyada fonologik, grammatik, semantik va til buzilishlarining boshqa sohalariga tatbiq etildi. Klinik lingvistikaning fan sifatida shakllanishi va rivoj topishi oʻtgan asrning 80-yillariga toʻgʻri keladi. 1981-yili Devid Kristalning “Klinik lingvistika” nomli kitobi nashr etilganidan soʻng u ommalasha boshladi [11.229].

Klinik lingvistikaning bir qancha sohaları paydo boʻldi:

1. **Klinik fonetika** — inson nutqidagi oʻziga xos jihatlar, nutqiy buzilishlar va ularni davolash masalalarini oʻz ichiga oladi. Maʼlumotlarga koʻra, dunyodagi har bir inson tovushi betakror va boshqa birovnikiga aslo oʻxshamaydi. Hatto ota-ona nutqi bilan uning farzandlari nutqi oʻrtasida ham katta farq boʻladi. Har bir shaxs nutqi betakror va qaytarilmas moʻjizadir. Inson oʻz ona tilida yoki oʻzlashtirgan tilda gapirar ekan, uning ovozi, nutqi oʻziga xos tarzda tovlanadi. Shu bois nutqiy buzilishlar har bir shaxs faoliyatida individual kechadi.

2. **Klinik fonologiya** — ogʻzaki nutq tovushlarini va imo-ishoralarni tizimli tashkil etish bilan shugʻullanadigan tilshunoslikning bir sohasi sanaladi. Klinik fonetikadan farqli ravishda, klinik fonologiyada maʼlum bir tildagi nutq tovushlariga tavsif beriladi va nutqda tovushlardan qay tarzda foydalanilishiga diqqat qaratiladi.

3. **Klinik prozodiya** — alohida fonetik segmentlar (unlilar va undoshlar) emas, balki boʻgʻinlar, soʻzlar va soʻz birikmalarini qoʻllash bilan bogʻliq boʻlgan nutqiy buzilishlarni oʻrganadi.

4. **Klinik morfologiyada** soʻzlarning, soʻz tuzilishi va uning qismlari, masalan, asos va qoʻshimchalarni ishlatishdagi nutqiy kamchiliklar tahlil qilinadi.

5. **Klinik sintaksis** gap qurilishi, soʻz tartibi, muayyan tildagi matnlarni tuzish bilan bogʻliq nutqiy buzilishlar va ularning oldini olish masalalarini oʻrganadi.

6. **Klinik semantika** muayyan shaxs yoki jamoa tomonidan qoʻllangan belgilarga oid nutqiy buzilishlar va ularning terapiyasini oʻz ichiga oladi.

7. **Klinik pragmatika** nutqiy buzilishlarning tavsifi va tasnifini amalga oshiradi, ularni turli pragmatik, lingvistik, kognitiv va nevrologik nazariyalar nuqtayi nazaridan tushuntirish, shuningdek, ularni baholash va davolash ishlari bilan shugʻullanadi.

8. **Klinik tibbiy diskurs** murakkab kommunikativ jarayon boʻlib, u oʻz ichiga shu sohaga oid barcha maʼlumotlarni, yaʼni tibbiy nutqni, shu mavzuda kechayotgan lingvistik jarayonlarni va ular negizida yotgan konseptual tizimlarni qamrab oladi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, nutqiy buzilishlarning lingvistik jihatlarini oʻrganish til va nutq oʻrtasidagi aloqalarni yanada chuqurroq anglab yetish, nutqning yuzaga chiqishi bilan bogʻliq fonetik-fonologik, psixologik jarayonlardagi nuqsonlarning sabablarini aniqlash va davolash choralarini koʻrish imkoniyatini yaratadi.

Hozirda dunyo miqyosida Xalqaro klinik fonetika va lingvistika assotsiatsiyasi samarali faoliyat olib bormoqda. Oʻzbekistonda bu borada eʼtiborga molik bironta ish amalga oshirilgan emas. Martin J. Ball tomonidan 1991-yilda tashkil etilgan “Klinik lingvistika va fonetika jurnali”da ham mazkur sohaga oid dolzarb mavzular koʻtarib chiqilmoqda. Afsuski, bu jurnalda ham bironta oʻzbekcha nutq buzilishlari bilan bogʻliq nashr kuzatilmaydi.

Oʻzbek tilshunosligi oldida klinik lingvistikani shakllantirish va rivojlantirishdek murakkab va dolzarb masala koʻndalang boʻlib turibdi. Jahon tibbiyotiga tamal toshini qoʻygan Abu Ali ibn Sinoning avlodlari hozirgacha rus tibbiyoti taʼsirida faqat nutq terapiyasi va til buzilishlari bilan bogʻliq ayrim masalalar ustida shugʻullanib keldi. Endilikda oldimizda turgan eng muhim vazifa nutq va til buzilishlarini baholash, davolash hamda tahlil qilishni takomillashtirish, mavjud klinik lingvistika nazariyalariga yangi zamon nuqtayi nazarlaridan yondashib, kerakli takliflarni kiritishdan iborat.

Aslida, klinik tilshunoslik (*clinical linguistics*) — zamonaviy tilshunoslikning interdisiplinar sohasi boʻlib, inson nutqi va tilida kuzatiladigan patologik holatlarni til nazariyasi,

psixolingvistika, neyrolingvistika, logopediya hamda klinik psixologiya yutuqlari asosida o'rganish bilan shug'ullanadi. Ushbu soha til tizimining me'yoriy faoliyati bilan uning buzilgan holatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlaydi, nutqiy buzilishlarning ichki tuzilishi va mexanizmlarini ochib beradi.

Sohaning o'zbek tilshunosligidagi holati, yuqorida ta'kidlanganidek, asosan rus tilshunosligi ta'sirida shakllanib kelindi.

Rus tilida klinik tilshunoslikning nazariy asoslari XX asrda nutq va tafakkur munosabatlarini o'rganishga bog'ishlangan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda vujudga keldi. L. S. Vigotskiy nutqni inson ongining asosiy vositasi sifatida talqin qilib, nutqiy buzilishlarni kognitiv rivojlanish jarayonidagi tizimli o'zgarishlar bilan bog'ladi. Uning madaniy-tarixiy konsepsiyasi klinik tilshunoslikda nutqiy nuqsonlarni ijtimoiy va psixik omillar bilan bir butunlikda tahlil qilish imkonini berdi [12].

A. R. Luriya tomonidan ishlab chiqilgan neyropsixologik nazariya klinik tilshunoslikning ilmiy poydevorini mustahkamladi. Olim nutqni miyaning bir nechta funksional bloklari faoliyati natijasi sifatida qarab, afaziya turlari — motor, sensor, dinamik va boshqalarni lingvistik hamda psixolingvistik belgilar asosida tasnifladi. Bu yondashuv nutqiy buzilishlarni faqat simptomatik emas, balki funksional tizim sifatida tahlil qilishga yo'l ochdi [13].

Klinik tilshunoslikda psixolingvistik yondashuv alohida ahamiyatga ega. A. A. Leontev nutq faoliyati nazariyasi doirasida nutqiy buzilishlarni nutqni rejalashtirish, kodlash va amalga oshirish bosqichlaridagi uzilishlar bilan izohladi. Ushbu qarash nutqiy kamchiliklarning mexanizmlarini chuqur tushunish va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qildi. U. Levelt tomonidan taklif etilgan nutqni ishlab chiqarish modeli esa klinik tilshunoslikda nutqiy xatolarni eksperimental asosda tahlil qilish imkoniyatini kengaytirdi.

Klinik tilshunoslikning zamonaviy rivojida quyidagi asosiy yo'nalishlar ajratiladi:

1. **Neyrolingvistik yo'nalish** — nutqiy buzilishlarni miya tuzilmalari va neyron mexanizmlar faoliyati bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu yo'nalishda afaziya, dizartriya, apraksiya, alaliya kabi patologiyalar lingvistik tuzilmalar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

2. **Psixolingvistik yo'nalish** — nutqiy buzilishlarni nutq faoliyatining kognitiv va semantik jarayonlari bilan bog'lab o'rganadi. Bu yerda nutqni qabul qilish, anglash va ishlab chiqarishdagi buzilishlar markaziy o'rin tutadi.

3. **Logopedik yo'nalish** — klinik tilshunoslikning amaliy qismi bo'lib, nutqiy buzilishlarni diagnostikalash, korreksiya qilish va rehabilitatsiya qilish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan.

4. **Lingvistik tavsifiy yo'nalish** esa nutqiy buzilishlarni fonetik, morfologik, sintaktik va diskursiv sathlarda tahlil qilib, til me'yorlari bilan qiyoslaydi.

So'nggi yillarda klinik tilshunoslikda kognitiv lingvistika, diskurs tahlili, eksperimental psixolingvistika hamda korpus usullarining joriy etilishi nutqiy buzilishlarning funksional va pragmatik jihatlarini chuqurroq o'rganish imkonini bermoqda.

Xulosa shuki, o'zbek tilshunosligida klinik tilshunoslik mustaqil yo'nalish sifatida hali yetarlicha shakllanmagan bo'lsa-da, nutq madaniyati, bolalar nutqi, logopediya va psixolingvistika sohasida olib borilgan tadqiqotlar mazkur yo'nalishni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi. Shu ma'noda, klinik tilshunoslikni o'zbek tili materiallari asosida rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. 2-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. — 383 b.
2. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. — 30 b.
3. Odil Yoqubov. Billur qandillar. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. — 32 b.
4. Hakim Nazir. Yonar daryo // Asarlar. 5 tomlik. 1-tom. — Toshkent, 1975. — 16 b.
5. Farhod Musajonov. Bo'sh kelma, Aliqulov. — Toshkent: Yulduzcha, 1988. — 184 b.

6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. — Toshkent: OʻzME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. — 17 b.
7. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1994. — 7 b.
8. Gʻafur Gʻulom. Shum bola. — Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʻat nashriyoti, 1983. — 148 b.
9. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1993. — 4 b.
10. Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻotit turk. 1-jild. — Toshkent: Mumtoz soʻz, 2016. — 70 b.
11. Kristal D. Klinik lingvistika. — London: Springer Science & Business Media, 2013. — 229 b.
12. Vygotskiy L. S. Tafakkur va nutq. — Moskva: Labirint, 1999. — 350 b.
13. Luriya A. R. Neyrolingvistika asoslari. — Moskva: MGU, 1975.
14. Leontev A. A. Psixolingvistika. — Moskva: Smysl, 2003.